



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No 1



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, yanvar.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

INSON KAPITALINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	52
Dilnoza Ruziqulova Xoliqovna	
MAHALLIY BUDJET DAROMADLAR BAZASINI BAHOLASH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH.....	56
Isoqov Zafarjon Zokirjonovich	
INNOVATSION IQTISODIYOTDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBA	60
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	
ОЛИГОПОЛИЯ И ТЕОРИЯ ИГР	64
Камилова Наргиза Абдукаххоровна, Наимов Самандар Раджабович	
ЦИФРОВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ: НОВАЯ ЭРА ЭФФЕКТИВНОСТИ	67
Каракулов Фарход Зайпудинович	
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINING INNOVATSION YECHIMLARI	72
Ergashev Jamshid Axmadaliyevich	
MOLIYAVIY AKTIVLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TIJORAT BANKLARIDA ULARNING SIFAT MEZONLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	77
Iskandarova Munisa Hasan qizi	
MOLIYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI	82
Xojiyev Jaxongir Dushabayevich, To'xtayev Kamol Po'latovich	
MARKETING VA BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TAYYOR KIYIMLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	87
Bababekova Gulchexra Baxtiyarovna	
NAMANGAN VILOYATI QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA MODERNIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	93
Odilova Malika Abdushukur qizi	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	98
Toshtemirov Xojjakbar Qahramon o'g'li	
ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ СТРАНЫ	103
Артикова Шохида Ильясовна	
MINTAQALARDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARI INNOVATSION SALOHİYATINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	107
Dadamirzayev Muzaffar Xabibullayevich	
THEORETICAL ASPECTS OF SERVICES IN THE CONTEXT OF UZBEKISTAN'S ECONOMIC TRANSFORMATION	114
Umidjon Normurodov, Qodirov Yusufbek Suyunbek ugli	
РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИЯТИЙ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ФОРМИРОВАНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ	120
Расулов Нозимжон Набиджонович	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING JORIY QILINISHI VA UNI OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI AHAMIYATI.....	125
Saburov Jumanazar Saliyevich	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI VA ICHKI BOZORNI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI	129
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТРАНСПОРТНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Убайдуллаев Худоёр Бахтиёр угли	



MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING XORIJ TAJRIBASI	141
Xayitov Rustam Burxonovich	
BARQAROR MOLIYALASHTIRISH KONSEPSIYASIGA MUVOFIQ "YASHIL" INVESTITSIYALARNI RIVOJLANTIRISH.....	146
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISH.....	151
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI	159
Ibodova Dilsora Ibodovna	
INVESTITION PORTFELLARNI SHAKLLANTIRISH, BAHOLASH VA BOSHQARISH.....	165
Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Abdullaeva Shohista	
KICHIK XIZMATLAR FAOLIYATINI RASMIYLASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGI KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH.....	170
Xalimbetov Farxad Bagibekovich	
MONOPOLIYAGA QARSHI BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBA VA MILLIY YONDASHUVLAR.....	173
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
СТАТИСТИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА ДИНАМИКИ И СЕЗОННОСТИ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Салиходжаева Умида Абдуакбар кизи	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TALABNI PROGNOZLASHNING CHAKANA MARKETING INNOVATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI ROLI	186
Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi	
TEMIR YO'L YO'LOVCHI TASHISH KORXONALARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MODELLARI	200
Eshboyev Ulug'bek Farxodovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT VA AUDIT METOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	205
Zufarova Zilola Raxim qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN RISKLARNI BOSHQARISH MEXANIZMIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILLARI	216
Rahmonqulov Temirbek Eshmatovich	
MULKIY SOLIQLARNING MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH.....	222
Aliyarov Olim Abdug'aparovich	
AVTOMOBIL SANOATIDA MAHSULOT BILAN BOG'LIQ XIZMATLAR TASNIFI	231
Saidov Dilshodbek Razzakovich	
UY-JOY FONDINI SAMARALI TASHKIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI.....	236
Otajonov Tohirjon Xo'janazar o'g'li	
TURIZMNI IQTISODIYOTDA TO'G'RIDAN TO'G'RI TA'SIRINI STATISTIK TADQIQOTI.....	241
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR BANK EKOTIZIMLARI VA O'ZBEKISTON BANK EKOTIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA QIYOSIY TAHLILI	248
X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMI UCHUN DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI ASOSIDA BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	254
Abdullayev Javohir Abdumalik o'g'li	
OROL BO'YI MINTAQASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	259
Umarova Xusnora Dilmurod qizi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ISHCHI KUCHIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	264
Xolmurotov Salimbek Eshbekovich	
INNOVATSION KLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI	269
Quliyev Begimqul Melikovich	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ	276
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
АГРОЭКОТУРИЗМ КАК НАПРАВЛЕНИЕ ДИВЕРСИФИКАЦИИ ЭКОНОМИКИ СЕЛЬСКИХ ТЕРРИТОРИЙ УЗБЕКИСТАНА	281
Хайдаров Ойбек Зоирович	
THE IMPACT OF DIGITALIZATION ON SERVICE QUALITY AND CUSTOMER SATISFACTION IN THE HOUSEHOLD SERVICE SECTOR: EMPIRICAL EVIDENCE FROM SAMARKAND REGION	287
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Yuldosheva Zulfizar Sayfullayevna	
DEVELOPMENT OF INTERACTIVE MODELING METHODS FOR THE SYNTHESIS OF INTELLIGENT CONTROL SYSTEMS FOR TECHNICAL OBJECTS IN THE DIGITAL ECONOMY	293
Mamutova Aygul Kalmurzaevna	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH MASALALARI	298
Abdurazakova Nasiba Sultanovna	
YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA SOLIQ MA'MURIYATCHILIGI TRANSFORMATSIYASI VA UNING MOLIYAVIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI	303
Tashmuxeimodova Yayra Atxamovna	
ZAMONAVIY AXBOROT TIZIMLARI ORQALI SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL	308
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
TA'LIM MIGRATSIYASI VA INTEGRATSIYA KO'RSATKICHLARINI STATISTIK TAHLILI: YEVROPA ITTIFOQI (SIRIUS) TAJRIBASI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	314
Abdullayeva Gulhayot Shuhratovna	
HUDUDIIY SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI KO'P OMILLI STATISTIK TAHLIL ETISHDAGI ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA ULARDAN FOYDALANISH YO'LLARI	319
Tag'oyev Feruz Yorqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI HUDUDIIY INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH: QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA TAHLIL VA TAVSIYALAR	326
Egamberdiev Abbasxon Sherali o'g'li	
KICHIK BIZNESDA INNOVATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	331
Nurullayev Baxrom Botirovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASIDAN FOYDALANISH	337
Ne'matova Mavsuma	
ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA ISLOMIY MOLIYA VA NOBANK KREDIT TASHKILOTLARIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI	341
Galatov Abbas Alibekovich, Xalilov Nurullo Xamidillayevich	
IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DAVLAT FISKAL SIYOSATI HOLATI TAHLILI	346
Xudayberginova Nigora Turgunbayevna	
MEHNATGA HAQ TO'LASHTIRISH MOHIYATI VA ULARNI HISOBGA OLIHNING ASOSIY VAZIFALARI	356
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
"CRADLE TO CRADLE" VA "CRADLE TO GRAVE" KONSEPSIYALARINING UMUMIY VA XUSUSIY JIHATLARI	360
Sodikov Zokir Rustamovich	
MINTAQADA PARRANDACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI	366
Qarshiyev Obidjon Egamberdiyevich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYALARI VA MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: KEYNESIAN YONDASHUV NUQTAI NAZARIDAN.....	370
Shermatov G'ofurjon G'ulamovich	
QURILISH KORXONALARIDA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (ROSSIYA TAJRIBASI)	377
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA YASHIL XIZMATLAR SEKTORINING TRANSFORMATSIYASI.....	385
Aliqulova Laylo Ziyadin qizi	
VIRTUAL TA'LIM MUHITI ORQALI TALABALARNING MULOQOT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	390
Bozorova Muazzam Hamid qizi, Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASHTIRISH	395
Qo'ziyboyev Umarbek Ulug'bekovich	
ОЦЕНКА СТОИМОСТИ И РИСКОВ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ (FDI)	400
Бахтиярова Дильноза Мадминджановна	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA MONOPOLIYAGA QARSHI NAZORATNING AHAMIYATI.....	407
Bekbutayev Nodirjon Fayzullayevich	
O'ZBEKISTONDA INTEGRATSIYALASHGAN YASHIL MOLİYALASHTIRISH ARHITEKTURASI: KONSEPTUAL MODEL VA AMALIY TAKLIFLAR.....	412
Quliyev Ulug'bek Mirzayevich	
BANK TIZIMI FAOLIYATI MISOLIDA MOLİYAVIY ISLOHOTLAR SHAROITIDA KORXONALAR LIKVIDLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	419
Iminova Nurjahan Qodirjon qizi, Karimov Sardorbek Shuxratjon o'g'li	
BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH BOJXONA REJIMINING SANOAT RIVOJI VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI O'RNI	423
Baxtiyor Abduganiyev, Nodira Saidbaxromova	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В СТАНОВЛЕНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	427
Li Kristina Alekseyevna, Элназарова Шарифа Исроиловна, Эшпулатов Достонбек Боходир огли	
TOVAR-XOMASHYO BIRJASIDA SAVDO TURLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNING BOZOR SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	432
Xudayberdiyev Kamoliddin Ustemirovich	
THE ROLE OF CORPORATE STRUCTURES IN THE DEVELOPMENT OF GLOBAL FINANCIAL RELATIONS.....	438
Kurbaniyazov Shakhzodbek Karimovich	
BANKLARNI MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH VA UNI OSHIRISHNING ASOSIY YO'LLARI	442
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING: O'ZBEKISTON SHAROITIDA SAMARADORLIK VA INTEGRATSIYA MODELLARI	446
Kamilov Farxod Shamilevich	
TASHQI SAVDODA EKSPORTNING MAKROIQTISODIY AHAMIYATI	453
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich, Mutalov Sultonbek Abduraim o'g'li, Baymanova Mavlyuda Djurayevna, Ubaydullayeva Gulchexra Erkabayevna, Aipova Iroda Ikramovna	
РАЗВИТИЕ АСПЕКТОВ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ.....	459
Юсупов Махамадамин, Закирова Умида Махамадаминовна	
LIZING OLUVCHI KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITILISHI	462
Sadritdinov Baxodir	



YASHIL IQTISODIYOT VA KICHIK BIZNES RIVOJLANISHINING NAZARIY-KONSEPTUAL ASOSLARI	467
Isroilov Dilshodbek Rustamovich	
TEKNOLOGIK RESURLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH	474
Kazakov Olim Sabirovich	



TEKNOLOGIK RESURSLARNI BOSHQARISHDA STRATEGIYALARDAN FOYDALANISH

Kazakov Olim Sabirovich

Namangan davlat texnika universiteti
“Menejment” kafedrası professori, i.f.n.
Email: olimkzkv@gmail.com

Annotatsiya. Texnologik resurslar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Maqolada texnologik resurslarni boshqarishda strategiyalardan foydalanish masalalari o'rganilgan. Strategiyani ishlab chiqish jarayoni bosqichlari yoritilgan va takomillashtirish yo'llari belgilangan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, texnologik resurslar, raqobatbardoshlik, boshqaruv strategiyalari, yuqori darajada foydalanish strategiyasi, cheklash strategiyasi, sanoatning raqobatbardoshlik tahlili.

Abstract. Technological resources are important in ensuring production efficiency. The article examines the issues of using strategies in the management of technological resources. The stages of the strategy development process are highlighted and ways of improvement are defined.

Key words: Management, technological resources, competitiveness, management strategies, high utilization strategy, containment strategy, competitive analysis of the industry.

Аннотация. Технологические ресурсы играют важную роль в обеспечении эффективности производства. В статье рассматриваются вопросы применения стратегий в управлении технологическими ресурсами. Выделены этапы процесса разработки стратегии и определены пути ее совершенствования.

Ключевые слова: Управление, технологические ресурсы, конкурентоспособность, стратегии управления, стратегия максимального использования, стратегия сдерживания, конкурентный анализ отрасли.

KIRISH

Taraqqiyotning hozirgi davrida mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sish sur'atlari yanada ortib bormoqda. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ta'kidlab o'tildi hamda taraqqiyotga ta'sir etuvchi omillar atroflicha baholab berildi. Jumladan, Murojaatnomada quyidagilar ta'kidlandi: “Bundan to'qqiz yil oldin iqtisodiyotimiz hajmini 100 milliard dollarga yetkazish biz uchun juda katta marra bo'lib ko'rinardi. Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi. Bunday yuksak natijalar xalqimizning, barchamizning qanday ulkan ishlarga qodir ekanimizni yaqqol namoyon etmoqda.

Global savdo tizimida “o'yin qoidalari” o'zgarayotgan bir paytda biz bu yil eksportimizni 23 foizga oshirib, 33,4 milliard dollarga yetkazamiz. Eng muhimi, islohotlarimiz uchun mustahkam moliyaviy baza bo'ladigan oltin-valyuta zaxiralarimiz ilk bor 60 milliard dollardan oshdi.

Bu yil iqtisodiyotimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 43,1 milliard dollarga yetdi. Jami investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31,9 foizni tashkil etmoqda. Bu esa iqtisodiyotimiz kelgusi yillarda ham yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sib borishi uchun zamin bo'ladi” [1].

Bu kabi yutuqlar zahirida ishlab chiqarishni takomillashtirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash va mavjud iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish turadi. Bugungi kunda sanoatda yuqori darajada texnologik resurslar jamlangan. Endilikdagi vazifa ulardan samarali foydalanish va har bir birligidan yuqori darajada natijaga erishishdan iboratdir. Texnologik resurslardan samarali foydalanish yo'nalishida ularni boshqarishda zamonaviy strategiyalardan foydalanish hozirgi vaqtda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshqarish va uni takomillashtirish, jarayonlar samarasini orttirishda boshqaruv strategiyalaridan foydalanish, texnologik resurslardan oqilona foydalanish yo'nalishida boshqarish strategiyalarini qo'llash



ko'plab tadqiqotchilar va olimlar tadqiqotlarining mavzusi bo'lgan. A.Smit, D.Rikardo, J.M.Keynsning g'oyalari, F.Kotler, A.Smit, Y.Shumpeter, R.Kantilyon, J.M.Keyns, R.Xizrich, M.Piters, P.A.Samuelson, A.O.Blinov, L.I.Abalkin, M.M.Maksimsev, V.Y.Gorfinkel, Ye.M.Kupryakov, V.S.Katkalo, A.Y.Panibratov, N.K.Yo'ldoshev, S.S.G'ulomov, Y.A.Abdullayev, H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatov, Q.Muftaydinov, M.R.Boltabayev, U.V.G'ofurov, Sh.I.Mustafaqulov, S.N.Usmonov, A.G'ofurov va shu kabi qator olimlar bu yo'nalishda tadqiqotlar olib borgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga muvaffaq bo'lganlar.

M.Y.Pogorelova resurslarni iqtisodiy tizim elementlari sifatida ta'riflaydi: "Resurslar – iqtisodiy tizim elementlari bo'lib, ishlab chiqarish jarayoni davomida iste'mol qilinadi yoki ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Ularga mehnat, yer, kapital (binolar va qurilmalar, texnologik dastgohlar, transport vositalari) kiradi" [3].

L.I.Abalkin rahbarligidagi mualliflar resurslarga shunday ta'rif berganlar: "Ishlab chiqarish resurslari – iqtisodiy nazariyaning asosiy tushunchasi bo'lib, ishlab chiqarishni ta'minlash vositalari, manbalaridan iborat bo'ladi" [4].

N.Q.Yo'ldoshevning ta'kidlashicha, "ishlab chiqarish jarayoni kompleks jarayon bo'lib, bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan texnologik va mehnat jarayonlarini o'z ichiga oladi. Texnologik jarayon — bu mehnat buyumlari o'zgarishi (shakli, tashqi ko'rinishi, katta-kichikligi, agregatlik holati, tuzilishi va hokazo)ning natijasi bo'lib, tabiiy jarayonlarni ham o'z ichiga oladi" [7].

O'tgan yili texnologik tizimlarda resurslardan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar global iqtisodiyotda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Google o'z serverlarida energiya sarfini 40 foizga qisqartirdi, Amazon esa ma'lumotlar markazlarining 50 foizdan ortig'ini qayta tiklanadigan energiya manbalaridan ta'minladi. Bundan tashqari, Toyota ishlab chiqarish jarayonini 20 foizga qisqartirishga erishdi, General Electric esa simulyatsiya modellarini qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini 25 foizga oshirdi. Ushbu ma'lumotlar texnologik resurslardan oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarishda muvaffaqiyatlarga erishish bilan bir qatorda ekologik va iqtisodiy jihatdan ham ijobiy natijalarga erishish mumkinligini ko'rsatmoqda [5].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotda texnologik resurslardan foydalanish masalalari tahlil qilindi. Ushbu masala bo'yicha shug'ullangan olimlar va mutaxassislarning yondashuvlari o'rganildi. Tadqiqot jarayonida abstrakt-mantiqiy tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, sabab-natija aloqalari, tizimli yondashuv, tanlama kuzatuv, solishtirma tahlil, ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi. Texnologik resurslardan samarali foydalanishning faoliyatga ta'siri misollar orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanishning intensiv yo'li sharoitida korxona rahbariyati ishlab chiqarishni rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatli maqsadlarining har doim mavjud bo'lgan nomuvofiqligini hisobga olishi kerak. Uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish shuni ko'rsatadiki, korxona moslashuvchan iqtisodiy tuzilmalarni yaratishga, ularning ilmiy-texnikaviy taraqqiyot yutuqlariga, yangi texnologiyalarga moyilligiga, mahsulot ishlab chiqarishning tubdan yangi texnologik yo'nalishlariga yuqori moslashuvchanligiga va boshqalarga intilishi kerak.

Texnologik resurslarni boshqarish jarayonida foydalanilishi mumkin bo'lgan strategiyalarning xilma-xilligi bir nechta asosiy strategiyalarning turli xil modifikatsiyalaridan iborat. Bularga quyidagilar kiradi: yuqori darajada foydalanish, foydalanish darajasini cheklash strategiyasi, unumdorlikni oshirish strategiyasi, dastgohlarni qisqartirish strategiyasi, kombinatsiyalashgan strategiya (1-rasm).



1-rasm. Texnologik resurslarni boshqarish strategiyalari



Yuqori darajada foydalanish strategiyasi zamonaviy fan yutuqlari asosida yaratilgan dastgohlar hamda barqaror texnologiyaga ega bo'lgan korxonalarda qo'llaniladi. Bozorda korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga yuqori talab mavjud bo'lgan hamda talab ortib borayotgan holatlarda ham bu strategiyadan foydalaniladi. Ushbu strategiya mavjud texnologik resurslardan maksimal darajada foydalanishni ko'zda tutadi.

Foydalanish darajasini cheklash strategiyasi dastgohlarning bir qismi eskirgan (jismoniy va ma'naviy) holatda, energiya sarfi yuqori bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Bozorda korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga talab pasayib borayotgan holatlarda ham bu strategiyadan foydalaniladi.

Mehnatunumdorligini oshirish va ishlab chiqariladigan mahsulotlartannarxinipasaytirib, raqobatbardoshlikni oshirish zarur bo'lgan holatlarda unumdorlikni oshirish strategiyasidan foydalaniladi. Har bir texnologik resurs, dastgohlar bo'yicha unumdorlikni oshirish tadbirlari belgilanadi.

Texnologik resurslarni boshqarishda mavjud dastgohlarni qisqartirish strategiyasi sanoat korxonalari tomonidan kamdan-kam hollarda tanlanadi. Bu maqsadlarni o'tmishda erishilganidan pastroq darajada belgilash bilan tavsiflanadi. Kamaytirish strategiyasi barqaror pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan taqdirda qo'llaniladi va hech qanday choralar uni o'zgartirmaydi.

Kombinatsiyalashgan strategiya — bu yuqorida keltirilgan barcha strategiyalarning kombinatsiyasidir. Ushbu strategiya odatda bir nechta sohalarida ishlaydigan yirik sanoat korxonalari tomonidan qo'llaniladi.

Texnologik resurslardan foydalanishda yuqori darajada o'sish strategiyasi quyidagilar orqali amalga oshirilishi mumkin:


- texnologik resurslardan foydalanish jarayonida sa'y-harakatlarni kuchaytirish (mahsulot hajmini ko'paytirish, bozorni rivojlantirish, geografik kengayish);

- sotib olish orqali diversifikatsiya qilish;
- korxonalararo hamkorlik va kooperatsiya;
- tashqi iqtisodiy faoliyat.

Asosiy strategiyalar umumiy strategiyaning variantlari bo'lib xizmat qiladi, ular korxonaning maqsadlariga muvofiqligi tekshiriladi, mahsulot, talab yoki texnologiyaning hayot siklining tegishli bosqichlari bilan taqqoslanadi.

Texnologik resurslarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish qator bosqichlardan iboratdir. Strategiyani ishlab chiqish jarayonini to'rt bosqichga bo'lish mumkin (2-rasm):

1. Korxonaning alohida omillar bo'yicha strategik pozitsiyasini aniqlash (tahlil qilish va korxonaning sanoatdagi o'ziga xos pozitsiyasini tahlil qilish).
2. Ichki va tashqi omillarning birgalikdagi o'zaro ta'sirini umumlashtirilgan baholash (korxona holatini tahlil qilish).
3. Strategik alternativani aniqlash.
4. Mavjud vaziyat va korxonaning vazifalarini qondiradigan strategiyani ishlab chiqish.



2-rasm. Strategiyani ishlab chiqish jarayoni bosqichlari

Texnologik resurslarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish jarayonida sanoatning raqobatbardoshlik tahlili quyidagilarni ta'minlaydi:

- sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish yo'nalishini aniqlash;
- sanoat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlarini belgilash;



- raqobat kuchlarini baholash;
- sohadagi raqobatdosh korxonalarning raqobatbardosh pozitsiyalarini baholash;
- eng yaqin raqobatchilarni tahlil qilish, ularning mumkin bo'lgan harakatlarini aniqlash;
- muvaffaqiyatning asosiy omillarini aniqlash;
- sanoatni rivojlantirish istiqbollarini baholash.

Korxonaning holatini tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bugungi strategiyani baholashda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar sifatida bozor ulushining o'sishi yoki pasayishi, rentabellikning o'zgarishi, sof foyda hajmining dinamikasi, kapital qo'yilmalarning qaytarilishi, kompaniyaning sotish o'sish sur'atlari va umuman bozor o'sishi taqqoslanadi.

Korxonaning ichki kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyatlar va tahdidlar tahlil qilinadi. Kuchli tomonlarga ajoyib ustunlik, yuqori obro'-e'tibor, raqobat tajribasi, moliyaviy resurslar, ilg'or texnologiyalar, yaxshi reklama kompaniyasi, kuchli boshqaruv jamoasi va boshqalar kiradi. Kuchsiz tomonlarga aniq strategiyani yo'qligi, eskirgan uskunalar, mutaxassislar malakasi va tajribasining yetarli emasligi, past sifat, tor assortiment, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va boshqalar kiradi. Imkoniyatlarga yangi bozorlarga va xaridorlarning qo'shimcha guruhlariga kirish, tegishli tovarlarni sotish, raqobatchilar pozitsiyalarining zaiflashishi kiradi. Tahdidlar sifatida kuchli kompaniyalarning sohaga bostirib kirishi, bozor o'sish sur'atlarining pastligi, o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining ko'payishi, tashqi savdo sharoitlarining qat'iylashuvi, davlat tomonidan tartibga solishning kuchayishi keltiriladi.

Korxona xarajatlarini tahlil qilishda ularning xarajatlari va raqobatchilar xarajatlari tarkibini taqqoslash xarajatlarni optimallashtirish hamda ularni korxona strategiyasiga kiritish uchun zarur qadamlarni aniqlashga imkon beradi.

Korxonaning raqobatbardoshligini baholash har bir raqobatchi bo'yicha vaznli reytinglar asosida amalga oshiriladi. Raqobatchilarning ustunligi aniqlangan pozitsiyalar bo'yicha ushbu ustunliklardan foydalanishga to'sqinlik qiladigan choralar ishlab chiqilishi lozim.

Korxonaning strategik muammolarini aniqlash tahlil natijalariga asoslanadi. Shunga ko'ra, korxona mavjud strategiyani kichik o'zgarishlar bilan davom ettirish yoki strategiyani konseptual qayta ko'rib chiqish zarurati to'g'risida qaror qabul qiladi. Oldingi tahlil natijalariga asoslangan muayyan strategiyani tanlash tizimli bo'lishi kerak, ya'ni barcha tadbirlar uzoq muddatli maqsadga xizmat qilishi, funksional bo'linmalar nuqtayi nazaridan o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiruvchi bo'lishi lozim. Har qanday muvaffaqiyatli strategiyani asosi raqobatdosh ustunliklarni yaratish va ulardan samarali foydalanishdan iborat.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Texnologik resurslarni boshqarishda strategiyalardan foydalanish katta samara beradi. Hozirgi globallashtirish sharoitida texnologik resurslardan maksimal darajada foydalanish strategiyasi ko'plab holatlarga mos keladi. Bu strategiya zamonaviy fan yutuqlari asosida yaratilgan dastgohlar hamda barqaror texnologiyaga ega bo'lgan zamonaviy korxonalarda qo'llaniladi. Bozorda korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga yuqori talab mavjud bo'lgan hamda talab ortib borayotgan holatlarda ushbu strategiyadan foydalanish yuqori samara berishi bilan asoslanadi. Ushbu strategiya mavjud texnologik resurslardan maksimal darajada foydalanishni ko'zda tutadi.

Foydalanilayotgan dastgohlarning bir qismi nisbatan eskirgan (jismoniy va ma'naviy), energiya sarfi yuqori bo'lgan korxonalarda foydalanish darajasini cheklash strategiyasini vaqtinchalik qo'llash mumkin. Bozorda korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlarga talab pasayib borayotgan holatlarda ham bu strategiyadan foydalaniladi. Holat yaxshilangandan so'ng boshqa strategiyaga o'tish tavsiya etiladi.

Boshqaruv faoliyatida texnologik resurslar samaradorligini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- texnologik resurslardan foydalanish jarayonida sa'y-harakatlarni kuchaytirish;
- mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish;
- bozorni rivojlantirish va geografik jihatdan kengayish;
- boshqaruv strategiyalari bo'yicha korxonalararo hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish;
- marketing faoliyatini keng miqyosda rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Toshkent. 26-dekabr 2025-yil. <https://president.uz/uz/lists/view/8834>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>



3. М.Я. Погорелова. Экономический анализ: теория и практика: Учебное пособие / М.Я. Погорелова. - М.: ИЦ РИОР: НИЦ ИНФРА-М, 2016. - 290 с., с.86.
4. Л.И.Абалкин, О.И. Волков и др. Экономика предприятия (фирмы): Практикум / Ред. О.И. Волков, В.Я. Поздняков. - М.: ИНФРА-М, 2016., с.91
5. Mirobidova M.S., Jamaldinova H.O. Texnologik tizimlarda resurslardan samarali foydalanishni optimallashtirish yo'nalishlari. IKRO jurnal.15(02),214-211<https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/104569>
6. Kazakov O.S. Menejment. Namangan «Usmon Nosir media», 2023, - 16,25 б.т.
7. Yo'ldoshev N.Q., Kazakov O.S. «Iqtisodiyot va menejment» (O'quv qo'llanma) - T.: TDIU, 2017, 216 bet.
8. Kazakov O.S. Menejmentga kirish. Daslik. Toshkent. "Fan ziyosi", 2022 yil, 378 bet.
9. https://ru.wikipedia.org/wiki/8F#cite_note-18
10. Eurostat. [Электронный ресурс]. URL: https://ec.europa.eu/eurostat/tgm/table.do.tab=table&plugin=1&language=en&pcode=t2020_20



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>